

XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Saydxodjayeva Nigoraxon Ibaydullaevna

University of economics and pedagogy NOTM

“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

saydxodjayevanigoraxon@gmail.com

Rustamjonova Gulsanam Olimjon qizi

University of economics and pedagogy NOTM

Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi

III-bosqich B006-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda moliyaviy boshqaruv, innovatsion moliyalashtirish, strategik rejalashtirish va ijtimoiy-ekologik mas’uliyat orqali resurslardan samarali foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi. Natijalar tadbirkorlikning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar. Xususiy tadbirkorlik, moliyaviy resurslar, samarali foydalanish, moliyaviy boshqaruv, innovatsion moliyalashtirish.

Аннотация. Данная работа посвящена изучению механизмов эффективного использования финансовых ресурсов в развитии частного предпринимательства. В исследовании анализируются финансовое управление, инновационное финансирование, стратегическое планирование и пути эффективного использования ресурсов с учётом социальной и экологической ответственности. Результаты показывают, что эти подходы способствуют устойчивому росту и повышению конкурентоспособности предпринимательства.

Ключевые слова. Частное предпринимательство, финансовые ресурсы, эффективное использование, финансовое управление, инновационное финансирование.

Annotation. This study is dedicated to examining the mechanisms of effective use of financial resources in the development of private entrepreneurship. The research analyzes financial management, innovative financing, strategic planning, and the use of resources through social and environmental responsibility. The results demonstrate that these approaches contribute to the sustainable growth and competitiveness of entrepreneurship.

Keywords. Private entrepreneurship, financial resources, effective use, financial management, innovative financing.

Xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish va ish o'rinlari yaratishda asosiy kuch hisoblanadi. Tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi esa moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishiga bevosita bog'liq. Shu bois moliyaviy resurslardan foydalanish mexanizmlarini mukammal ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Moliyaviy resurslar bo'lmasa, eng yaxshi g'oyani ham hayotga tatbiq etib bo'lmaydi. Tadbirkorlikning muvaffaqiyati ko'pincha resurslardan foydalanish samaradorligiga bog'liq (P. Drucker, *Innovation and Entrepreneurship*, 1985). Moliyaviy resurslar tadbirkorlikning yuragi hisoblanadi. Ular orqali ishlab chiqarish vositalari xarid qilinadi, texnologiyalar va hom ashyolar ta'minlanadi, ishchi kuchi va xizmatlar moliyalashtiriladi, biznesni kengaytirish va investitsiyalar amalga oshiriladi. Tadbirkorlikning muvaffaqiyati moliya boshqaruvi samaradorligiga bog'liq (J. Brigham, *Financial Management: Theory & Practice*, 2013).

Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmi sifatida investitsion rejalashtirish masalalarini ko'rish mumkin. Investitsion rejalashtirish – bu mablag'larni optimal taqsimlash va loyihaning foydali bo'lishini ta'minlash jarayoni bo'lib hisoblanadi. Shu orqali loyihaning rentabelligi tahlil qilinadi, xatarlar va imkoniyatlar baholanadi, qaytish muddati aniqlanadi. Samarali investitsion rejalashtirish tadbirkorlikdagi eng muhim vositalardan biridir; u nafaqat foydani, balki barqaror o'sishni ta'minlaydi (R. Brealey, S. Myers, *Principles of Corporate Finance*, 2011). Tadbirkorlikni moliyalashtirishning asosiy manbalari bank krediti, mikroqarzarlar, lizing, obligatsiyalar, subsidiyalar va grantlardir. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi ko'pincha moliyaviy instrumentlar orqali moliyalashtirish imkoniyatiga bog'liq (OECD, *Financing SMEs and Entrepreneurs*, 2020). Misol uchun, kichik biznes uchun subsidiyalangan kreditlar investitsiyalarni 30–50%ga oshirishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashib, innovatsiyalarni o'zlashtirishda ilg'or bo'lib bormoqda. Shu bois, mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayapti. Bozor dinamikasi va o'zgarishlariga bunday moslashish tadbirkorlikning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. (N.Saidxodjayeva. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, 2025) Pul oqimini boshqarish orqali tadbirkor kassa va hisob-kitoblarni nazorat qiladi, likvidlikni ta'minlaydi va qarzlarni optimallashtiradi. “Naqd pul oqimini boshqarish qobiliyati – tadbirkorlikning hayotiy ko'rsatkichi” hisoblanib, bugungi bozor sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim bo'lib hisoblanadi. (J. Brigham, *Financial Management: Theory & Practice*, 2013) Soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlari tadbirkorlikni rag'batlantiradi. Bu mexanizmlar orqali moliyaviy resurslarni tejash, ishlab chiqarishni kengaytirish va

yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Soliq va subsidiya mexanizmlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda eng samarali vositalardan biridir. (World Bank, Doing Business Report, 2021) Moliyaviy hisobotlar va KPI yordamida samaradorlikni nazorat qilish, risklarni baholash va diversifikatsiya qilish orqali yo'qotishlarni kamaytirish, qarorlarni aniq ma'lumotlarga asoslash tadbirkorlik muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi. Tadbirkorlikdagi muvaffaqiyatning 70% moliya boshqaruvining samaradorligiga bog'liq (R. Kaplan, D. Norton, Balanced Scorecard, 1996). Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda an'anaviy kreditlar bilan bir qatorda innovatsion moliyalashtirish vositalari ham samarali hisoblanadi. Jumladan: Venture capital (risk kapitali) – yuqori rivojlanish salohiyatiga ega startaplarni moliyalashtirish; Crowdfunding – internet platformalar orqali kichik investorlar mablag'larini jalb qilish; Angel investors – tajribali shaxsiy sarmoyadorlar orqali moliyalashtirish kabi innovatsion moliyalashtirish kichik va o'rta biznesning yangi texnologiyalarni tatbiq etishi va raqobatbardoshligini oshirishida muhim vosita hisoblanadi (Sahlman, W. A., How Venture Capital Works, Harvard Business Review, 1990). Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish nafaqat mablag'larni tejash, balki biznesning rentabelligini oshirishga yordam beradi. Moliyaviy samaradorlikni oshirishning eng muhim yo'li bu operatsion va moliyaviy jarayonlarni birgalikda optimallashtirishdir (Brealey, R. A., Myers, S. C., Principles of Corporate Finance, 2019). Zamonaviy tadbirkorlikda moliyaviy resurslardan foydalanishni optimallashtirish raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Elektron hisob-kitob va onlayn bank xizmlari;
- ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning);
- Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va prognozlash.

Raqamli moliyaviy tizimlar tadbirkorlikni samarali boshqarish va resurslardan maksimal foyda olish imkonini beradi (World Economic Forum, Digital Transformation of SMEs, 2021). Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi va nodavlat tashkilotlarning yordam dasturlari muhim ahamiyatga ega. Imtiyozli kreditlar va subsidiyalar, startap va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish fondlari, moliyaviy trening va maslahat xizmatlarini shular jumlasiga kiritish mumkin. Davlat qo'llab-quvvatlashi va nodavlat moliyaviy dasturlar kichik va o'rta biznesning rivojlanishi uchun katalizator vazifasini bajaradi (European Commission, SME Access to Finance Report, 2020). Moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda risklarni aniqlash va boshqarish strategiyasi muhim hisoblanadi. Bunda asosan biznes sug'urtasi, hedjning – valyuta va foiz risklarini kamaytirish va

diversifikatsiya – sarmoyalarni bir necha loyihaga taqsimlash risklarni to'g'ri boshqarilishida samarali natija berishi va biznesni moliyaviy resurslarni yo'qotishdan himoya qilishi mumkinligi amaliy tajribalardan ma'lum. Riskni boshqarish tadbirkorning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va resurslarni samarali ishlatishga imkon beradi (Jorion, P., Financial Risk Manager Handbook, 2007). Xususiy tadbirkorlikda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning asosiy sharti – strategik moliya boshqaruvi. Bu yondashuv orqali tadbirkorlar nafaqat joriy operatsiyalarni moliyalashtiradi, balki uzoq muddatli o'sish va barqarorlikni ta'minlaydi. Strategik moliya boshqaruvi quyidagilarni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash;
2. Kapital strukturasini optimallashtirish;
3. Resurslarni investitsion loyihalarga ustuvorlik bilan yo'naltirish.

Strategik moliya boshqaruvi tadbirkorning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi va resurslardan maksimal samaradorlik bilan foydalanishni kafolatlaydi. (Anthony, R. N., Management Accounting: Text and Cases, 2010)

Zamonaviy tadbirkorlikda moliyaviy innovatsiyalar katta rol o'ynaydi. Masalan: Fintech platformalari – onlayn to'lovlar, kreditlash va sarmoya boshqaruvi; Blockchain texnologiyalari – moliyaviy tranzaksiyalarni xavfsiz va tez amalga oshirish; Smart kontraktlar – avtomatlashtirilgan shartnomalar orqali mablag' oqimini tezlashtirish. Moliyaviy texnologiyalar kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtiradi va resurslardan samarali foydalanishni oshiradi (Gomber, P. va boshq., FinTech: Understanding the FinTech Ecosystem, 2018). Xususiy tadbirkorlikda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va krizislarni boshqarish muhimdir. Bu holatda tadbirkor quyidagilarni hisobga olishi kerak: 1. Favqulodda zaxiralarni yaratish;
- 2. Likvidlikni barqaror ushlab turish;
- 3. Moliyaviy qarorlarni stress-test orqali baholash (Reinhart, C. M., Rogoff, K., This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly, 2009). Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, xususiy tadbirkorlikda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish quyidagi mexanizmlarga asoslanadi:

- Kichik biznes uchun davlat qo'llab-quvvatlovchi fondlar va startap grantlari;
- Moliyaviy hisob-kitob va auditni xalqaro standartlarga moslashtirish;
- Mahalliy va global investorlarni jalb qilish orqali sarmoya oqimini diversifikatsiya qilish.

Xorijiy mamlakatlarda moliyaviy resurslarni boshqarish tizimi tadbirkorlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi, ayniqsa KOS (kichik va o'rta sanoat) sohasida. (OECD, SME and Entrepreneurship Outlook, 2022) Zamonaviy tadbirkorlikda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham o'z ichiga oladi: CSR (Corporate Social Responsibility) dasturlari orqali resurslarni jamiyat foydasiga

yo'naltirish; Yashil moliya (Green Finance) – ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali soliq imtiyozlari va subsidiya olish. Ijtimoiy va ekologik mas'uliyat bilan boshqariladigan tadbirkorlik moliyaviy samaradorlikni oshiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. (Porter, M., Kramer, M., Creating Shared Value, Harvard Business Review, 2011)

Xulosa. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish tadbirkorlikning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, strategik moliya boshqaruvi, innovatsion moliyalashtirish, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy-ekologik mas'uliyat tadbirkorlarga resurslardan maksimal foyda olish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anthony, R. N. Management Accounting: Text and Cases. 2010.
2. Brealey, R., Myers, S. Principles of Corporate Finance. 2011.
3. Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row, 1985.
4. Brigham, E. F., Ehrhardt, M. C. Financial Management: Theory & Practice. 2013.
5. Gomber, P., Koch, J.-A., Siering, M. FinTech: Understanding the FinTech Ecosystem. 2018.
6. Jorion, P. Financial Risk Manager Handbook. Wiley, 2007.
7. Kaplan, R., Norton, D. Balanced Scorecard. Harvard Business School Press, 1996.
8. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook. 2022.
9. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs. 2020.
10. Porter, M., Kramer, M. Creating Shared Value. Harvard Business Review, 2011.
11. Reinhart, C. M., Rogoff, K. This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly. Princeton University Press, 2009.
12. Sahlman, W. A. How Venture Capital Works. Harvard Business Review, 1990.
13. World Bank. Doing Business Report. 2021.
14. World Economic Forum. Digital Transformation of SMEs. 2021.
15. European Commission. SME Access to Finance Report. 2020.